

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIMY FAOLIYATNI TO‘GRI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Sharipova Feruzabonu Fayzulloyevna

Buxoro shahar 45- Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatni to'g'ri tashkil etishning pedagogik va psixologik xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Ta'lim jarayonining samaradorligi, avvalo, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, kommunikativ salohiyati va yangilikka ochiqligi bilan uzviy bog'liq ekani asoslab berilgan. Maqolada bolalarning yosh xususiyatlariga mos o'quv muhitini yaratish, ularning shaxsiy, nutqiy, ijtimoiy va bilish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yondashuvlar asoslangan holda yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy-emosional muhit va pedagogik muloqotda psixologik qulaylik yaratish orqali ta'limga ijobiy munosabatni shakllantirish tamoyillari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta'lim, ta'limiy faoliyat, pedagogik kompetensiya, psixologik yondashuv, ijtimoiy-emosional rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье глубоко проанализированы педагогические и психологические особенности правильной организации образовательной деятельности в дошкольных образовательных учреждениях. Обосновано, что эффективность образовательного процесса тесно связана с профессиональной компетентностью воспитателя, его коммуникативным потенциалом и открытостью к нововведениям. В статье освещены подходы, направленные на создание образовательной среды, соответствующей возрастным особенностям детей, удовлетворение их личностных, речевых, социальных и когнитивных потребностей. Также изложены принципы формирования положительного отношения к обучению посредством создания социально-эмоциональной атмосферы и психологического комфорта в педагогическом взаимодействии.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, образовательная деятельность, педагогическая компетентность, психологический подход, социально-эмоциональное развитие.*

Abstract: *This article presents an in-depth analysis of the pedagogical and psychological features of properly organizing educational activities in preschool educational institutions. It substantiates that the effectiveness of the educational process is closely linked to the teacher's professional competence, communication capacity, and openness to innovation. The article highlights approaches aimed at creating an educational environment tailored to children's developmental characteristics and designed to meet their personal, speech, social, and cognitive needs. Additionally, it outlines the principles of fostering a positive attitude towards learning through the creation of a socially emotional atmosphere and psychological comfort in pedagogical interaction.*

Keywords: *preschool education, educational activity, pedagogical competence, psychological approach, socio-emotional development.*

Kirish

Maktabgacha ta’lim inson shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo‘lib, uning mazmunli va to‘g‘ri tashkil etilishi nafaqat bola rivojlanishiga, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bugungi ta’lim siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu qarorda maktabgacha ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, mazkur tizimda davlat va nodavlat sektorlarining hamkorligini kengaytirish, ta’lim sifati va qulayligini ta’minlash, shuningdek, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zarurligi qayd etilgan [1].

So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish, bolalarning bilim, axloq, estetik did va jismoniy salohiyatini muvozanatli rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning individuallashtirilgan o‘quv ehtiyojlarini qondirish, ularning qobiliyatlarini aniqlab, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va ijtimoiy moslashuvchanlik darajasini oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda. Prezident qarorida ta’kidlanganidek, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni pedagogik kadrlar, zamonaviy o‘quv-metodik adabiyotlar, badiiy asarlar va texnik vositalar bilan ta’minlash ham muhim vazifalardan biri etib belgilangani sohaning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” maktabgacha ta’lim mazmunini aniqlashtiruvchi asosiy huquqiy-me‘yoriy hujjat sifatida qabul qilingan. Mazkur standartda ta’limning asosiy prinsiplari, namunaviy o‘quv rejalari, bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar, o‘quv dasturlar mazmuni va ta’lim muassasalarini moddiy-texnik jihozlash me‘yorlari aniqlab berilgan. Bu esa maktabgacha ta’limdagi faoliyatni zamonaviy, ilmiy asoslangan va metodik jihatdan izchil tashkil etishni taqozo etadi [2].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning muhim boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, nutqiy, ijtimoiy, ma’naviy va jismoniy rivojlanishida bu bosqichda amalga oshiriladigan ta’limiy faoliyatning to‘g‘ri tashkil etilishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu faoliyat mazmunan boy, ilmiy asoslangan, bolaning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlariga mos holda yo‘lga qo‘yilgan taqdiridagina yuqori natijalarga erishiladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil holatiga ko‘ra O‘zbekistonda jami 33 942 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Shundan 6 780 tasi davlat, 27 162 tasi esa nodavlat tashkilot hisoblanadi. Nodavlat bog‘chalar tarkibida 847 ta xususiy, 24 927 ta

oilaviy, 1388 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi tashkilotlar mavjud. Ushbu raqamlar maktabgacha ta’lim tizimi so‘nggi yillarda miqdoriy jihatdan jadal rivojlanganini ko‘rsatadi, biroq mazmuniy va metodik jihatdan sifatli ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish masalasi doimo dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Respublikada 3–7 yoshli bolalar soni 2 mln 930 ming 844 nafarni tashkil etsa, ulardan 74 foizi, ya’ni 2 mln 169 ming 538 nafari bog‘chaga qatnaydi. Ushbu ko‘rsatkich milliy miqyosda yuqori qamrov darajasiga erishilganini bildiradi

Asosiy qism

UNESCO 2023-yilgi global hisobotiga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda 3–6 yoshdagi bolalarning 85–97% gacha maktabgacha ta’limga jalb etilgan. Masalan, Finlyandiyada bu ko‘rsatkich 96%, Janubiy Koreyada 94%, Fransiyada esa 98% ni tashkil etadi. Osiyo mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlar orasida Xitoy 78%, Malayziya 74% va Qozog‘iston 73% kabi mamlakatlarda ham qamrov darajasi barqaror ortib bormoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan muvofiqlashtirilganda yanada samarali natijalar beradi. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar ta’limiy faoliyatning samaradorligini oshirish, bolalarning nutqiy, mantiqiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanish darajasini ko‘tarish, shuningdek, pedagogik jarayonni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida tashkil etishning dolzarbligini yaqqol namoyon etadi.

Xususan Italiyalik pedagog M. Montessori bolalar o‘z-o‘zini o‘rganish printsipligiga asoslangan pedagoga. M. Montessori ta’limiy muhitning o‘zi pedagogik vosita bo‘lishi, bolaning mustaqil, tajriba asosida bilim olish uslubi ustuvor bo‘lishi lozim deb hisoblagan. Montessori metodi maktabgacha faoliyatni tashkillashtirishda didaktik materiallarning maxsus tartiblanganligi va erkin tanlov imkoniyatini hamda sensorli tajriba o‘tkazishni ta’minlashi muhimligini bildiradi [10].

A. Uinsler esa rivojlanish psixologi, tarbiyachining bolalar bilan interaktiv nutqiy munosabatlarining ta’sirini o‘rgangan. Uning tadqiqotlarida shaxsiy nutq orqali bolalar o‘z fikrini boshqarishga o‘rgani, ijtimoiy kompetensiyani shakllantirishi aniqlangan. A. Uinsler shuningdek, badiiy harakatlar va musiqa mashg‘ulotlari bolalarning ijtimoiy muloqot va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini sezilarli rivojlantiradi degan xulosaga kelgan [16].

L.R. Muminovanning ilmiy tadqiqotlarida ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishda pedagogik-korreksion ishlarning roli alohida ta’kidlanadi. Tadqiqot muallifi maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining nutqiy rivojlanishida xalq og‘zaki ijodi asosidagi o‘yinlar vositasidan foydalanish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilgan. U xalq o‘yinlari orqali o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning nafaqat nutqiy, balki bolalarning psixologik, jismoniy va ijtimoiy-axloqiy rivojlanishida ham katta o‘rin tutishini tajribasinnov asosida asoslab bergan. Bu esa ta’limiy faoliyatni tashkil etishda milliy qadriyatlarga tayangan metodik yondashuvning samarali ekanligini ko‘rsatadi [9].

G.E. Djanpeisovanning izlanishlari esa maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tafakkurni shakllantirish muammolarini yoritadi. U ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish

jarayonida mantiqiy va arifmetik ko‘nikmalarni interaktiv metodlar, jumladan, kompyuterli ta‘lim muhiti orqali rivojlantirishning ustuvorligini isbotlagan. Djanpeisova bola bilan vositachi-personajlar orqali olib boriladigan virtual muloqot modelini ishlab chiqib, bu yondashuv bolalarda faol, ongli va ijodiy tafakkur shakllanishiga zamin yaratishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Bu esa ta‘limiy faoliyatda raqamli texnologiyalarni puxta va maqsadli qo‘llashning dolzarbligini ko‘rsatadi [6].

Shu bilan birga, G.A. Mardonovanning tadqiqotlarida maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarni alla vositasida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari chuqur yoritilgan. U allaning ijtimoiy-g‘oyaviy va tarbiyaviy funksiyalarini tahlil etib, uni ta‘limiy faoliyatga didaktik vosita sifatida kiritish orqali bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqqan. Bundan tashqari, u “oila–mahalla–maktabgacha ta‘lim muassasasi” o‘rtasidagi hamkorlik asosida bu faoliyatni samarali tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modelini taklif qilgan. Bu yondashuv ta‘limiy jarayonni oilaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish orqali bolalarning shaxsiy rivojlanishini kuchaytirishga xizmat qiladi [8].

G.M. Nazirova esa maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘limiy faoliyatni tizimli va integratsiyalashgan yondashuv asosida takomillashtirish muammosini o‘rganib, samarali modelni ishlab chiqqan. Uning ta‘kidlashicha, bolalarning rivojlanish sohalari – jismoniy, nutqiy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishini qamrab olgan kompleks yondashuv ta‘limiy faoliyatni optimallashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Nazirova tomonidan ishlab chiqilgan modelda “Play-guruhlar” faoliyati doirasida bolalarda kreativlikni rivojlantirish, refleksiv fikrlash va mustaqil harakatlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratiladi. Bu esa zamonaviy ta‘limiy faoliyatni differensial va individual yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligini taqozo etadi [11].

N.Sh. Abdullayevaning maktabgacha ta‘limni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarida, ta‘limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish uchun avvalo bolalarning yoshi, psixologik holati, qobiliyat va ehtiyojlarini inobatga olish zarurligi asoslab beriladi. Muallifning ta‘kidlashicha, ta‘limni individuallashtirish va differensiyalashga asoslangan texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash bolalarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, o‘z nuqtai nazarini ifoda etish salohiyatini shakllantiradi. Bu esa ta‘limiy faoliyatni nafaqat uzviy, balki moslashuvchan tarzda tashkil etishni taqozo etadi. Ayniqsa, “variantiv ta‘lim texnologiyalari”, “ta‘lim traektoriyasi” va “shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv”lar ta‘limiy faoliyatda alohida o‘rin tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar zamonaviy metodik kompetensiyalarni egallab, har bir bolaga mos individual yondashuvni ishlab chiqishi ta‘lim sifati va samaradorligini oshiradi [3].

D.A. Abdurahimovanning izlanishlari esa ta‘limiy faoliyatni xalq og‘zaki ijodi orqali boyitish imkoniyatlarini ochib beradi. Uning tadqiqotida bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda qadriyatlar tizimi asosida tuzilgan pedagogik yondashuv muhim o‘rin tutishi ko‘rsatilgan. Muallif tomonidan taklif qilingan tamoyillar – yaxlit yondashuv, individual pedagogik qo‘llab-quvvatlash, madaniyat va tabiat bilan uyg‘unlik, insonparvarlik –

ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishda asosiy mezonlar sifatida tavsiya qilinadi. Bu esa tarbiyaviy faoliyatni faqat bilim berish bilan emas, balki shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, estetik va axloqiy hissiyotlarni uyg‘otish bilan birga olib borish zarurligini anglatadi [4].

Shuningdek, M.N. A’zamova tomonidan ilgari surilgan do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik muhiti tamoyili ham ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish uchun muhim asosdir. Tadqiqot muallifi bolalarni maktabgacha ta’lim bosqichidanoq hamkorlikda faoliyat yuritishga, do‘stona aloqalar o‘rnatishga o‘rgatish orqali ularni maktab hayotiga moslashuvchan qilish mumkinligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv bolalarda ijtimoiylashuv, jamoada ishlash, fikr almashish, murosaga kelish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi va ta’limiy faoliyatda ijobiy psixologik muhitni ta’minlaydi [5].

A.E. Rustamovanning tadqiqotlari esa chet tilini o‘qitishda bolalar talaffuzini shakllantirish va lingvopsixologik yondashuvlar asosida ta’limiy faoliyatni tashkil etishning muhimligini ko‘rsatadi. Muallif o‘yin texnologiyalarini qo‘llash orqali bolaning eshitish, aytish, idrok qilish, eslab qolish va ravon talaffuz etish jarayonlarini faol holga keltirish mumkinligini asoslab bergan. Bu esa ta’limiy mashg‘ulotlarda o‘yin elementlarini to‘g‘ri va maqsadli joriy etishning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi [13].

D.T. Sabirova esa tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish orqali bolalarning estetik dunyoqarashi va tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan metodlarni taklif etadi. Uning fikricha, nazariy bilimlar faqat amaliyot bilan uyg‘unlashgandagina samarali bo‘ladi. Shu bois mashg‘ulotlarga o‘yin vaziyatlarini kiritish, interfaol metodlar, treninglar, musobaqa shaklidagi topshiriqlardan foydalanish bolalar faolligini oshiradi va ta’limiy faoliyatni jonlantiradi. Bu yondashuv, ayniqsa, bolalarning vizual, emotsional va psixomotor rivojlanishini uyg‘unlashtirishda muhim ahamiyatga ega [14].

Z.H. Rahmatovanning tadqiqotida ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etishda nutqni rivojlantirish vositalarining lingvistik asoslari alohida e’tiborga olinadi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bosqichi sifatida shakllanayotgan bir paytda, bolalarning umumiy muhim kompetensiyalarini rivojlantirish, ayniqsa kommunikativ, ijtimoiy va bilish kompetensiyalarini shakllantirish o‘ta dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotchi bolalar so‘z boyligini oshirishda foydalaniladigan nutq vositalarining — lug‘atlar, leksik minimumlar, multimediyaviy resurslar — mazmuni, uslubiy jihatdan to‘g‘ri tanlanishi va psixolingvistik mezonlarga mos bo‘lishi zarurligini asoslab beradi. Bu esa ta’limiy faoliyatda qo‘llaniladigan har bir lingvistik materialni ilmiylik, mantiqlilik, darajalilik, tushunarlilik va milliylik kabi tamoyillar asosida tuzish zaruratini keltirib chiqaradi [12].

M.N. Xushnazarova maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishni ta’limiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy sharti sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, tarbiyachilarni ilmiy-metodik faoliyatga tizimli jalb qilish, innovatsion mashg‘ulot modellarini joriy etish, o‘quv dasturlarini bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda loyihalash ularning ta’limiy jarayonni samarali tashkil etishdagi rolini oshiradi. Bu esa faqat bolalar bilan emas, balki tarbiyachilar bilan ham tizimli ishlash, ularni zamonaviy texnologiyalar, yangicha yondashuvlar, metodik materiallar bilan ta’minlashni talab etadi [15].

Shuningdek, F.F. Ganjiev maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi pedagoglarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini ta’limiy faoliyatning asosiy poydevorlaridan biri sifatida tahlil qilgan. U o‘z empirik tadqiqotlarida tarbiyachilarda shaxslararo munosabatlarni boshqarish, noverbal muloqot vositalarini tushunish, verbal axborot bilan psixologik ta’sir o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash qobiliyatining ta’limiy jarayonga bevosita ta’sir qilishini aniqlagan. Bunday kompetensiyalar tarbiyachining bolalar bilan emotsional aloqasini mustahkamlab, ta’limiy faoliyatda ishonch, qiziqish va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi [7].

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish ko‘p jihatdan quyidagi komponentlarga tayanishi lozim:

– birinchidan, lingvistik materiallarning ilmiy asoslanganligi va ular orqali bolalarning so‘z boyligini ongli shakllantirish;

– ikkinchidan, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini doimiy takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati;

– uchinchidan, ijtimoiy-psixologik jihatdan uyg‘un muloqot muhiti yaratish va bunda pedagogning ijtimoiy-emotsional salohiyati yuqori bo‘lishi.

Shu sababli ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish nafaqat o‘quv dasturlarining mazmuni, balki uni hayotga tatbiq etuvchi pedagogik kadrlarning malakasi, kommunikatsion salohiyati va yangilikka ochiqligi bilan bevosita bog‘liqdir. O‘z navbatida, bu yondashuv bolalarning shaxsiy, nutqiy, bilish va ijtimoiy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga, ularni keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida zamonaviy, xalqaro mezonlarga mos, milliy qadriyatlarga sodiq ta’limiy muhit shakllanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan, ta’limiy faoliyatni tashkil etishda avvalo bolalarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyatlari va o‘zlashtirish darajasi inobatga olinadi. Bu bosqichdagi bolalarda bilim olish jarayoni ko‘proq o‘yin, amaliy mashg‘ulotlar va jonli taassurotlar orqali shakllanadi. Shuning uchun darsliklar, metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallar bolaning idrok darajasiga mos, obrazli, hayotiy va qiziqarli bo‘lishi lozim. O‘qitish jarayoni esa bolalarda mustaqil fikrlash, kuzatish, umumlashtirish, taqqoslash va sintez qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, interaktiv metodlar, loyiha asosidagi mashg‘ulotlar, innovatsion o‘yin texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’limiy faoliyat samaradorligini oshiradi.

Ta’limiy faoliyatning pedagogik jihatdan yana bir muhim xususiyati – bu tarbiyachining kompetensiyasi bilan bevosita bog‘liqdir. Tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki bolalarning emotsional, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishini yo‘naltiruvchi subyekt bo‘lishi lozim. Shu sababli pedagogik faoliyatda kasbiy saviya, kommunikativ madaniyat, psixologik sezgirlik, metodik bilim va yangilikka ochiqlik asosiy mezon sifatida qaraladi.

Psixologik jihatdan esa ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish bola shaxsining psixik rivojlanish qonuniyatlariga mos bo‘lishi bilan belgilanadi. Bu yoshdagi bolalar emotsional, intuitiv va harakatga asoslangan idrok orqali o‘rganadilar. Ularning e’tiborining barqarorligi past, xotirasi obrazli va qisqa muddatli, tafakkuri esa konkret-tasviriy xarakterga ega. Shu

bois ta’limiy jarayonda psixologik yengillik, rag‘batlantiruvchi muhit, do‘stona munosabat va xavfsizlik muhiti yaratilishi muhimdir. Bolada o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat paydo bo‘lishi uchun u o‘zini tushunilgan, qadrlangan va qo‘llab-quvvatlangan holda his qilishi kerak. Shuningdek, o‘yin faoliyati, erkin ifoda va emotsional rezonans bolaning psixologik tayyorgarligini mustahkamlab, ta’limiy faoliyatga ishonch bilan yondashishga asos bo‘ladi.

Psixologik yondashuvda bolalarning shaxslararo muloqotini rivojlantirish ham alohida o‘rin tutadi. Guruhli faoliyat, jamoaviy mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar orqali bolalar ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi, o‘zini jamiyatning bir qismi sifatida anglay boshlaydi. Bu esa ularning ijtimoiylashuvi, hamdardlik, hamkorlik, muomala va murosaga kelish qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagog tomonidan bolalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuvlar qo‘llanishi esa har bir bola uchun qulay psixologik muhit yaratadi [7].

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda lingvistik materiallarning ilmiy asoslanganligi, tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi va ta’limiy muhitning psixologik barqarorligi muhim rol o‘ynaydi. Bolalarning so‘z boyligini ongli rivojlantirish uchun tanlanadigan nutq vositalari mazmunan chuqur, uslubiy jihatdan aniqlangan va psixolingvistik mezonlarga mos bo‘lishi lozim. Pedagoglar tomonidan o‘quv faoliyatini bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos holda tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ularning bilish jarayonini sezilarli darajada faollashtiradi. Shuningdek, bolalarning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini inobatga olgan holda muloqot muhiti yaratish ta’limga ijobiy munosabatni mustahkamlaydi. O‘yin, hamkorlik, erkin ifoda va emotsional qo‘llab-quvvatlash asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bolalarning shaxsiy salohiyatini to‘laqonli yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Demak, maktabgacha ta’limda ta’limiy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish uzluksiz ta’lim tizimining sifatli bosqichini shakllantirishning eng muhim mezonidir.

Foydalanilgan adabiotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son Qarori // <https://www.lex.uz/docs/4327235>
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” 802-sonli qarori <https://www.lex.uz/docs/-5179335>
3. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan..fals dok. (PhD) – T., 2019. – B. 22-23.
4. Abdurahimova D.A. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) ... avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 74 b. (B.31)

5. A‘zamova M.N. Maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish: Pedagogika falsafa doktori (phd) avtoreferati. –Toshkent, 2020. – 45 b. (B.18)
6. Джанпеисова Г.Э. Предматематическое развитие детей на основе компьютерных технологий в контексте непрерывного образования // Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании»
7. Ганжиев Ф.Ф. Мактабгача таълим ташкилоти тарбиячиларида ижтимоийпсихологик компетентлик омилларининг намоён этилиши ва ривожланиши: Психол согия ... фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Бухоро, 2021. -169 б. (B.116-117)
8. Мардонова Г. А. Оилада болаларни алла воситасида маънавий-ахлоқий тарбиялашнинг педагогик имкониятлари: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) . дисс. – Т., 2019. –159-б.
9. Мўминова Л., Кабулова Р., Пўлатова С.. Мактабгача таълим муассасаларининг катта ва мактабга тайёрлов гуруҳ болалари нутқини халқ ўйинлари асосида ривожлантириш технологияси. –Т.: «Fan va texnologiya», 2014, - 72 б.
10. Montessori, M. (1995). The absorbent mind. New York: Henry Holt and Company. 320 p.
11. Назирова Г.М. Мактабгача таълим муассасаларида педагогик жараёнларни такомиллаштириш: Автореф. ... пед. фан..фалс док. (PhD) – Т., 2019. – 45 б
12. Раҳматова З.Х. Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ўстириш воситаларини яратишнинг лингвистик асослари: Филология ... фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Қарши, 2021. – Б. 123-124.
13. Rustamova A.E. Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o‘qitishda talaffuzni shakllantirish va rivojlantirish (Ingliz tili materialida): Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... avtoreferati. –Samarqand, 2021. -56 b. (B.24)
14. Сабирова Д.Т. Мактабгача катта ёшдаги болаларда тасвирий саводхонлик элементларини шакллантириш: Педагогика фанлари номзоди ... диссертацияси. – Тошкент, 2007. –Б.131-132
15. Хушназарова М.Н. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштириш: Педагогика ... фалсафа доктори (PhD) автореферати. –Тошкент, 2021. -52 б. (B.22)
16. Winsler, A., Wallace, B. A., Carlton, M. P. et al. (2003). “Private speech in preschool children: developmental stability and relations with classroom behaviour,” Journal of Child Language, 30, pp. 583–608.